



# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqqa boshlagan

№22 (784), 2024-yil 28-noyabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



## Islohotlar - amalda

# KADRLAR – TARAQQIYOTNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI

Har qanday korxonada yoki tashkilotning rivojlanishi, texnik va moliyaviy imkoniyatlari yuqori bo'lishi ko'p jihatdan ishchi-xodimlar, mutaxassislar bilim, malakasi va tajribasi darajasiga bog'liq. Xodimning malakasi yuqori, bilimi chuqur bo'lsa ham uni mutazam ravishda rivojlantirish, oshirib borish talab etiladi. Zero, texnika va texnologiya to'xtovsiz yangilanib bormoqda. Bu esa ishchi-xodimlarni kasb mutaxassisligi bo'yicha o'qitish, rahbarlar, muhandis-texnik xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, zamon evrilishlariga tezda moslasha olishga tayyor bo'lishi doimo dolzarb bo'lib qolishini anglatmoqda. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ bosh direktorining xodimlar va ma'muriy masalalar bo'yicha o'rinbosari Qurbanmurat Taparov bilan suhbatimiz Navoiy kon-metallurgiya kombinatida kadrlar siyosatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar va sohadagi o'zgarishlar, islohotlar xususida bo'ldi.

## MALAKALI MUHANDIS KADRLAR TAYYORLASH – DOIMIY E'TIBORDA

Keyingi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinatining mavqei yanada oshib, xalqaro reytingdagi o'rni mustahkamlanib bormoqda. Bu, albatta, o'z-o'zidan qo'lga kiritilgan, oson bo'lgani yo'q. Buning zamirida, avvalo, muhtaram Prezidentimizning sohaga bo'lgan e'tibori, davlatimizning qo'llab-quvvatlashi, qariyb 50 ming kishilik jamoaning mashaqqatli mehnati mujassam. Bu muvaffaqiyatlar zamirida korxonamiz kadrlari, mutaxassislarining alohida o'rni bor.

Yurtimizda yoshlarimizning chuqur bilim olishi, kasb-hunar egallashi uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Davlatimiz rahbari tomonidan sanoat korxonalarini uchun zamonaviy bilimlarni egallagan, malakali, raqobatbardosh muhandis kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz raisligida joriy yilning 20-iyunida o'tgan yig'ilishda muhandis kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan fikrimizning isbotidir.

Kombinatda keyingi yillarda yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirilayotgani bois yangi zamon muhandislari, malakali kadrlarga talab yuqori bo'lib qolmoqda. Tizimli tarzda yo'lga qo'yilgan “Tarmoq – korxonada – oliygoh” zanjiri asosida ishlar tashkil etilayotgani yangi imkoniyatlarni yaratib beryapti.

Kombinat investitsion loyihalarni amalga oshirish, yangi va zamonaviy korxonalarini barpo etish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish hisobiga mahsulot hajmini oshirib bormoqda. Buning siri nimada, degan savol ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy.

Kombinat korxonalaridagi ishlab chiqarish jarayonlari zamonaviy texnika va texnologiyalarga asoslangan. Ular juda o'ziga xos murakkab bo'lib, endigina oliygoh yoki kasb-hunar maktabini tugatib kelgan, yetarli tajribaga ega bo'lmagan ishchi-kadr ularni boshqarishi qiyin.

O'tgan yillar mobaynida korxonamizda yosh kadrlarning malakasini oshirish borasida o'ziga xos maktab shakllangan. Bunda, “ustoz-shogird” an'analari, kombinat tizimidagi 5 ta O'quv markazida turli kasblarga qayta o'qitilish yo'lga qo'yilgani o'zining ijobiy samarasini berayapti.



## OLYGOHLAR BILAN HAMKORLIK SAMARADORLIK MEZONI

Kombinat faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy natijalari bevosita inson resurslarini boshqarish tizimining sifati va samaradorligiga bog'liq. Chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasida eng muhim resurs va eng katta boylik sifatida inson va uning intellektual salohiyati e'tirof etilmoqda.

Yig'ilishda qayd etilganidek, muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish, sohani rivojlantirish uchun yangi tashabbuslarni ilgari surib, yuqori malakali muhandis-texnologlarni shakllantirish zarur. Endilikda “tarmoq-korxonada-oliygoh” zanjiri asosida har bir oliygohga sanoat hamkori belgilab beriladigan bo'ldi.

Kombinatimizda yangi fikr, yangi g'oyalarga ega malakali mutaxassislar, muhandislar, o'z

ishini puxta o'zlashtirib keta oladigan yangi avlod shakllanib kelayotgani juda quvonarli natija. Ishlab chiqarishga muhandis kadrlarni tayyorlash uchun Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Toshkent kimyo texnologiyalar instituti, Geologiya fanlari universiteti, Toshkent axborot-texnologiyalari universiteti, Toshkent davlat transport universiteti va boshqa qator oliy ta'lim muassasalari bilan o'zaro hamkorlik qilinmoqda. Birgina, 2022–2023-o'quv yilida ushbu oliy o'quv yurtlari talabalarining 814 nafari kombinat tizimida amaliyot o'tagan bo'lsa, 2024-yilning o'tgan davrida amaliyotchi talabalar safi yanada ortdi. Shuningdek, kombinat kadrlar tayyorlab berish bo'yicha ta'lim muassasalari bilan ham hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Hozirda bu borada yuqorida nomlari keltirilgan oliygohlardan tashqari Zarafshon sanoat texnikumi, Uchqud konchilik texnikumi, shuningdek, Navoiy shahrida faoliyat yuritayot-

gan “Ishga marhamat!” monomarkazi bilan ham mustahkam aloqalar o'rnatilgan.

Bunday hamkorlik nafaqat kadrlarni tayyorlash, balki ilmiy-tadqiqot va izlanishlar uchun ham yangicha muhitni yaratmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim — ilm-fan — ishlab chiqarish to'la integratsiyalashtirilgani, nazariya va amaliyot yaxlitligi, talabalar malakaviy amaliyotlarini bevosita ishlab chiqarish korxonalarida o'tkazayotgani bitiruvchilarning tayyor mutaxassis bo'lib chiqishiga zamin yaratmoqda.

Joriy yilning aprel oyida Myunxen texnika universitetida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va “Yangi O'zbekiston” universiteti tomonidan xalqaro simpozium o'tkazildi. Mazkur simpoziumda O'zbekiston va Germaniyaning oliy ta'lim muassasalari, davlat idoralari va sanoat korxonalarini vakillari qatorida ishtirok etdim. Simpoziumning panel sessiyalarida O'zbekiston va Germaniyaning nufuzli oliygohlari va kompaniyalari, jumladan Energetika vazirligi, “NKMK” AJ, “OKMK” AJ, O'zmetkombinat, “O'zbekiston havo yo'llari” kabi kompaniyalarning rahbar va mutaxassislari salohiyatli talabalarning mahalliy sanoat korxonalarida amaliyotlarini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini birgalikda olib borish yuzasidan o'zaro tajriba va fikr almashishdi. Ushbu simpozium doirasida o'rnatilgan hamkorlik aloqalari natijasida o'zbek va nemis sanoat kompaniyalari ishtirokida “Yangi O'zbekiston” universiteti Xalqaro sanoat maslahatlashuv Kengashini tashkil etish rejalashtirilmoqda. Mazkur Kengash tomonidan kelgusida O'zbekistonda “fan-ta'lim-ishlab chiqarish” yaxlit tizimini nemis tajribasi asosida yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu bo'yicha “Yo'l xaritasi” ham ishlab chiqildi. Kombinatin kadrlar tizimi yetakchi mutaxassislari xorijiy oliygohlarda xizmat safarlarida bo'lishib, o'zaro tajriba almashmoqdalar. Amalga oshirilayotgan bunday manfaatli hamkorliklar kelajakda mamlakatimiz rivoji va taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasiz.

Davomi 2-betda

## 1-gidrometallurgiya zavodi tashkil topganligining 60 yilligiga

1-gidrometallurgiya zavodining tashkil topishi Navoiy kon-metallurgiya kombinatining tarixi bilan chambarchas bog'liq. Zavod bepoyon Qizilqum cho'li bag'rida asrlar davomida yashirinib yotgan yer osti boyliklarini o'zlashtirish, hududda sanoat korxonalarini, zamonaviy shaharlar barpo etilishining solnomasini boshlab berdi. 1964-yilning 4-dekabrda zavod ishga tushirildi.

# SHONLI SANAGA – MUNOSIB YUTUQLAR BILAN

Ana shundan buyon o'tgan davrda korxonada jamoasi fidokorona mehnati, yuksak professionallik darajasi, zimmasiga yuklatilgan vazifani bajarish mas'uliyatini chuqur anglagan holda samarali ishlarni amalga oshirmoqda hamda mahsulot ishlab chiqarishda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlab kelmoqda. Nafaqat “Qizilqum” kon boshqarmasi, balki butun kombinatning ilg'or bo'linmalaridan bo'lgan zavod ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlarining mahsulot turli va hajmini oshirish, iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'lidagi izlanish va intilishlari, erishayotgan quvonchli yutuqlari Yangi O'zbekiston va Navoiy kon-metallurgiya kombinati taraqqiyotiga munosib hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Qutlug' sana kunlarida tarixga qaytib, korxonaning bunyod etilishi bilan bog'liq jarayonlarni ta'kidlash o'rinni bo'ldi. Dastavval Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi va 1-sonli tajriba sexi qurilishi boshlangandi. 1962-yilning 6-martida uran tarkibli ma'dan ortilgan birinchi vagon sorbsion-ekstraksiya texnologiyasini sinab ko'rish uchun yaratilgan tajriba sexiga olib kelinadi. Sexda kelgusi yilning oxirigacha zavodning ma'dan tayyorlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha barcha texnologik jarayonlari to'liq ishlab chiqildi. Bugun o'sha unutilmas kunlarda ulkan maqsadlar bilan kunni tunga ulab mehnat qilgan, tashkilotchilik iste'dodini namoyish etgan, zavodning birinchi quruvchilariga g'amxo'rlik ko'rsatib, murakkab ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan va qisqa vaqtda mamlakat uchun zarur strategik mahsulot ishlab chiqarish majmuasini yaratishda bosh bo'lgan rahbar mutaxassislarining nomlarini e'tirof etish ham farz,



ham qarzdur. Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi boshlig'i Suren Petrosyan, 1-sonli tajriba sexining birinchi boshlig'i Rostislav Simakov, sex texnologiyasi Yevgeniy Lebedev, 1-sonli tajriba sexining boshlig'i Yuriy Novikov, Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi muhandisi Lyudmila Liliboklar shular jumlasidandir. Zavod 1978-yilda “Ishlab chiqarish madaniyati va mehnatni tashkil etishda namunal” degan yuksak nomga sazovor bo'ldi. Sohaning Sergey Vitkovskiy, Vladimir Kovalenko, Vitaliy Yevdokimov, Tetrax Gurdzibeyev kabi yetuk mutaxassislari turli davrlarda zavodda rahbarlik lavozimlarida ishlab, uning rivojiga arziqlik ulush qo'shganlar.

Mustaqillik yillarida 1-gidrometallurgiya zavodida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Uran tarkibli ma'danlarni qayta

ishlash va uran chala oksidi ishlab chiqarish uchun qurilgan zavodda yillar davomida yangi texnologik liniyalari ishga tushirilib, ma'dan va eritmalarni qayta ishlab chiqarish oshirib borildi. O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida kombinatda uranni yer ostida tanlab eritish texnologiyasi tatbiq etilishi natijasida ko'plab uskuna va jihozlarning ishlatilishi to'xtatildi. Jamoa ma'danini qayta ishlashning asosiy zanjirini o'zgartirib, yangi turdagi mahsulot – oltin ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'ldi. Bu yerda “Muruntov” oltin konining balansdan tashqari ma'danlarini qayta ishlash boshlandi. Istiqol yillarida zavodda amalga oshirilgan texnik va texnologik yangilanish, modernizatsiyalash oltin ma'danini qayta ishlashni 4,5 baravarga, oltinni yarim tayyor holatida ishlab chiqarishni 5 ba-

ravarga, uran chala oksidi ishlab chiqarish hajmini 5 baravarga oshirish imkonini berdi. Bugungi kunda korxonada temir kuporosi eritmasi va tuzi, suyuq natriy silikati kabi mahsulotlar ham ishlab chiqarilmoqda. Zavod kombinat faoliyatining oltin ishlab chiqarish yo'nalishi uchun ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarish va tatbiq etishning maydoni, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayni paytda zavodda 1 va 2-texnologik, konchilik va texnologik uskunalarini ta'mirlash sexlari, energouchastka, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika uchastkasi, texnologik laboratoriya, ma'muriy-xo'jalik xizmati, chiqindi saqlash ma'danlarini flotatsion boyitishda olinadigan flotatsion boyitmalara qayta ishlanadi. Sexning temir sulfat ishlab chiqarish bo'linmasida 2-gidrometallurgiya zavodining tarkibida oltin bo'lgan magnit fraksiyasini qayta ishlab chiqarish temir kuporosi eritmasi va tuzi olinadi. 2-texnologik sexda esa oltin ma'danlari konlarining oksidlangan hamda “Qoraqo'ton” koni ma'danlarini qayta ishlanib, oltin yarim tayyor mahsulot holida ishlab chiqarilayapti.

“Qizilqum” kon boshqarmasining yirik va asosiy bo'linmasi bo'lgan 1-gidrometallurgiya zavodi jamoasi korxonada tashkil topganligining 60 yilligini munosib mehnat sovg'alari, rejalarini oshirib bajarish bilan kutib olyapti. Zavod mehnat ahli kombinatning yetakchi korxonalarini safidan munosib o'rin egallab, yutuqlarni yanada ko'paytiradi.

Avaxxon EZOXONOV, “Qizilqum” kon boshqarmasi direktori.

## Xabar

Gidrometallurgiya zavodlarida pulpa va suspenziyalarni suvsizlantirish uchun ishlatiladigan quyuqlashtiruvchi moddalar konstruksiyali xususiyatlariga ko'ra radial va piramidal cho'ktiruvchi uskunalar, plastinkali, tebranish quyuqlashtirgichlari, gidrosiklonlar, gidravlik ajratgichlar, quyuqlashtiruvchi filtrlar, magnit quyuqlashtiruvchilarga bo'linadi.

# FOYDALI MODELLAR UCHUN PATENTLAR OLINDI



Markaziy konstruktiv byurosi tomonidan kombinat zavodlari uchun S-28, S-36 va S-12 radial quyuqlashtirgichlar ishlab chiqildi va S-50, S-100 radial quyuqlashtirgichlar, P-50 periferik quyuqlashtirgichlar rekonstruksiya qilindi. Amalga oshirilgan o'zgarishlardan so'ng quyuqlashtiruvchi moddalarning hajmi 1,5 baravarga oshdi. Bu ishlarda yurong A.Sultonov, Sh.Mirzayev, B.Axmedov, B.Irziyev, A.Atoev kabi konstruktivlari ishtirok etishdi. Hozirgi kunda barcha gidrometallurgiya zavodlari yangilangan radial quyuqlashtirgichga ega.

Radial quyuqlashtiruvchi ta'minlovchi quduqning optimal varianti uchun ko'plab tajribalar va kompyuter simulatsiyalari o'tkazildi. Ish natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan foydali modellar uchun patentlar ham olindi, – deydi Markaziy konstruktiv byurosi bosh konstruktivi Abdurashid Sultonov.

Quyuqlashtiruvchi vositaning keng tarqalgan turi – mexanik cho'kindi chiqadigan silindrsimon idish bo'lib, unga radial quyuqlashtiruvchi deyiladi. Mavjud asbob-uskunalarini modernizatsiya qilish va optimallashtirish orqali texnologik jarayonlarda suv aylanish tizimida sodir bo'ladigan to'siqlarni bartaraf etish imkoniyati oshmoqda.

Yangi texnologiyalarni joriy etish innovatsion markazi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yilda kombinatning ilmiy salohiyatga ega mutaxassislari ixtirolari uchun 37 ta patent olingan. Shundan 34 tasi O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan tasdiqlandi.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati.

■ **Islohotlar - amalda****KADRLAR — TARAQQIYOTNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI**■ **Oxiri. Boshlanishi 1-betda****ILM-FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH UYG'UNLIGI**

Kombinat ishlab chiqarish bo'linmalarida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining konchilik ishi, metallurgiya, mashinasozlik texnologiyasi kabi mutaxassislik kafedralari filiallari qatorida yaqinda Navoiy mashinasozlik zavodida yana bir yangi — Sanoat ishlab chiqarish mahalliyashtirish kafedrasini tashkil etilgan ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiyalash yo'lida amaliy ishlar olib borilayotganidan dalolatdir. Talabalar mazkur kafedra filiallari va texnoparkda amaliyot o'tash jarayonida nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlaydilar. Ularga bevosita ishlab chiqarish korxonalarining malakali, tajribali mutaxassislari amaliy mashg'ulotlar o'tishadi. Shu bilan bir qatorda universitetning uchinchi bosqich talabalari kombinat korxonalarida ikki oylik amaliyotda bo'lishadi. Amaliyot davrida ular ish haqi olishadi.

Shu bilan birga, oliyog' professor-o'qituvchilari ham o'z navbatida ishlab chiqarish obyektlari, zavodlarga tashrif buyurib, ish jarayonlarini o'rganish bilan birga zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan tanishmoqda, ko'nikmalarini oshirishmoqda. Shuningdek, investitsion loyihalarni ishga tushirishda bevosita ishtirok etib, yangi bilimlarni o'zlashtirayotir. Ilm-fan, ta'lim uyg'unligi ilmiy g'oyalari zaxirasini, yangi texnologiyalar yaratishga qodir kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Bugungi kunda korxonada faoliyat yuritayotgan 10 nafar fan doktori, 24 nafar fan nomzodi universitet o'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlariga jalb etilgan. Yangi gidrometallurgiya zavodlari, konlar va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlarini ishga tushirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish hisobiga kombinat faoliyat ko'lami yildan-yilga kengayib bormoqda. Yangi texnologiyalar, texnik tizimlar murakkablashishi, ularning iqtisodiyot va umuman, jamiyat rivojida o'rni kuchaygani sari muhandislik ta'limi sifatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilm-fan va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan boxabar bo'lish, zamonaviy muhandislik texnologiyalariga doir bilimlarni egallash, tizimli va ijodiy fikrlash ko'nikmasiga ega yuqori malakali muhandislarini maqsadli tayyorlash takomillashtirib boriladigan uzluksiz jarayondir.

Har yili Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetini tamomlagan 350-400 nafar talaba kombinatning tarkibiy bo'linmalariga ishga qabul qilinmoqda.

Bugungi kunda dual ta'lim rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni yuksaltirishda katta o'rin tutadi. Dual ta'lim — talabaga oliy o'quv yurtida ta'lim olish bilan birga o'z yo'nalishiga mos tash-

kilotda mehnat qilish, malaka oshirish imkoniyatini beruvchi tizim. Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. Kombinat tizimida ham mazkur tizim o'rganilib, o'qish bilan bir vaqtda korxonalarda zamonaviy texnologiya va dastgohlarda ishlab chiqarishni o'zlashtirish. Zarafshon sanoat texnikumi va Uchquduq konchilik texnikumida dual ta'lim asosida saboq olgan talabalar kombinatda ishlab chiqarish amaliyotini o'tab, keyinchalik ishga joylashtiriladi. Talabalar haftada ikki kun ishlab chiqarish



**Bugungi kunda kombinat va uning tarkibiy bo'linmalarida 3 ta O'quv markazi, 2 ta o'quv kursi mavjud. Ularda har yili 12 ming nafardan ortiq mutaxassislar o'qitilmoqda. Jumladan, 2024 yilning 10 oyi davomida 4 153 nafar xodim qayta tayyorlanib, ikkinchi va qo'shimcha kasbga o'qitildi. Shuningdek, 5 984 nafar ishchi-xodimlarning malakasi oshirildi. Shu bilan birga 1 975 nafar rahbar va muhandislar respublika institutlari va malaka oshirish markazlarida o'qish imkoniyatiga ega bo'lishdi.**

jarayonlarida bevosita ishtirok etadilar va shu tariqa, birinchi kursdan boshlab korxonada ishga chuqurroq kirib boradilar.

Jumladan, "NKMK" AJ va Zarafshon sanoat texnikumi bilan tuzilgan shartnomaga asosan Markaziy kon boshqarmasida 10 ta mutaxassislik bo'yicha 100 nafar 2-kurs o'quvchilarning amaliyot tashkil etildi. 2024-yilda Zarafshon sanoat texnikumining 95 nafar 2,3-kurs o'quvchilari Markaziy kon boshqarmasida, Uchquduq sanoat texnikumining 2-kurs o'quvchilaridan 100 nafari Shimoliy kon boshqarmasida amaliyot o'tashdi.

"NKMK" AJ va G'ozg'on politexnika texnikumi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, 2022/2023-o'quv yillarida 12 nafar o'quvchi uchun Markaziy kon boshqarmasida "Foydali qazilma konlarini ochiq usulda qazib olish" yo'nalishida dual ta'lim shaklida amaliyot tashkil etildi.

Bundan tashqari Navbahor tumani politexnikumida tokar va elektrgazpayvandchi mutaxassisliklari bo'yicha o'qitish uchun ishlab chiqarish uchastkasi tashkil etildi. Navoiy mashinasozlik zavodining 9 nafar muhandis-texnik xodimlari

mazkur yo'nalishlarga nazariy va ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'qituvchi sifatida jalb etilgan.

**OCHIQLIK VA SHAFFOFLIK-TARAQQIYOT NEGIZI**

Kombinatda kadrlar malakasini oshirish tizimida o'zgarishlarni kuzatib borish, mehnat bozorida ishchi kuchining rivojlanish tendensiyalarini va unga qo'yiladigan sifat va miqdoriy talablarni o'z vaqtida aniqlash, shuningdek, xodimlar manfaatlarini va ehtiyojlarini aniqlash hamda moddiy va nomoddiy rag'batlantirishning to'g'ri tizimini yaratishga qaratilgan yangilangan kadrlar siyosati ishlab chiqilgan. Zamonaviy HR-menajmentini tashkil qilish maqsadida, kombinatning Kadrlar boshqarmasi tuzilmasi takomillashtirilib, uning tarkibida kadrlar hisobi, tanlov va moslashtirish, xodimlarni baholash va attestatsiyalash hamda o'qitish va rivojlantirish guruhlari joriy etildi. Kombinatda korporativ boshqaruvning yangi shakllarini joriy etish, kadrlar siyosatini olib borishda HR, ya'ni inson resurslaridan oqilona foydalanish yuqori samaradorlikni taminlaydi. Bu tajriba dunyoning yetakchi kompaniyalarida muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan va o'zini oqlab kelmoqda. Shu bois, xalqaro standartlarga muvofiq boshqaruv tizimi kombinatning kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jamiyatda kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish, boshqa lavozimga o'tkazish hamda ularning xizmat pog'onalarini bo'yicha ko'tarilish jarayonini shaffoqlashtirish, nepotizm, tanish-bilish, urug'-aymoqchilik va korrupsiya holatlarning oldini olish maqsadida, "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va uning tarkibiy bo'linmalariga tanlov asosida kadrlarni ishga qabul qilish yoki boshqa ishga o'tkazish to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Unga ko'ra, ishga qabul qilish besh bosqichdagi tanlov, jumladan test, suhbat va amaliy mashg'ulotdan iborat bo'lgan sinovlar orqali, tegishli sohadagi yuqori malakali mutaxassislar, ishchilar va kasaba uyushmasi vakillaridan tashkil topgan Tanlov komissiyalari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston xalqi yurtimizni rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishdek ulug'vor maqsad sari odimlamoqda. Kombinat jamoasi ham fidokorona mehnati bilan birga oddiy ishchidan tortib, barcha xodim va mutaxassislarining malakasi, tajribasi, kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borishni yanada yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishish uchun ishonchli va muhim yo'l deb biladi. Islohotlar natijasida kombinat muhandis kadrlarning malakasini oshirib, ularni zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mutaxassislar sifatida tayyorlashga muvaffaq bo'layotir.

Suhbatdosh Dildora KARIMOVA.

■ **Ayollar Kengashi faoliyatidan**

Joriy yilning 14-noyabr kuni Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyining media markazida "NKMK" AJ Ayollar Kengashi va "Oila" ilmiy, ijtimoiy va gumanitar tashabbuslar Markazi nodavlat notijorat tashkiloti hamkorligida kombinat xotin-qizlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

**GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA O'ZARO MANFAATLI HAMKORLIK**

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasining O'zbekiston Respublikasining gender siyosati bo'yicha huquqiy savodxonligini oshirish" mavzusida tashkil etilgan tadbirda kombinat rahbariyati, markaz direktori o'rinbosari Dilbar Alimjanova hamda korxonaning faol ayollari ishtirok etishdi.

Uchrashuvda gender tenglikni ta'minlash masalasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, jamiyat va davlat boshqaruvida ularning teng ishtirok etishiga erishish kabi masalalar bo'yicha fikr-mulohazalar bildirildi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda qatnashchilar mavzu doirasida o'zlarining taklif, fikr va mulohazalarini bildirib, qiziqirgan savollarga batafsil javoblar olishdi.

Yakunda umumiy maqsadlardan kelib chiqib, "NKMK" AJ va "Oila" ilmiy, ijtimoiy va gumanitar tashabbuslar Markazi NNT o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumini imzolandi. Tomonlar xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish, gender tenglikni ta'minlash yuzasidan vazifalarni birligida hal etishga kelishib oldilar.

- Tashkilotimizning maqsadi — oilalar, xotin-

qizlar, gender masalalari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, tahlil qilish hamda natijalarni yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiya va takliflarni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, murakkab hayotiy vaziyatdagi oilalarni qo'llab-quvvatlashdir. Tashkilotimiz faoliyatiga hali ko'p vaqt bo'lmadi, tajriba to'playapmiz, desak ham bo'ladi. Bugungi uchrashuvimiz ham yangi innovatsion hamkorlik maydonlarini yaratish, oila institutini rivojlantirish, gender tenglik masalalarini ilgari surish, qo'laversa, fuqarolarimizning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratiladi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati jamoasiga maqsadlarimizni yetkazgan holda, ularning gender siyosati bo'yicha huquqiy savodxonligining oshirishiga hissa qo'sha olsak, xursand bo'lamiz. Chunki, erkin va rivojlangan fuqarolik jamiyatini o'z huquqini bilgan fuqarolar bilangina qurish mumkin. Umid qilamanki, mazkur hamkorligimiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ularning faolligini oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli bo'ladi, -deydi "Oila" ilmiy, ijtimoiy va gumanitar tashabbuslar Markazi nodavlat notijorat tashkiloti direktori o'rinbosari Dilbar Alimjanova.

Dildora TO'LQINOVA.

■ **Aktualno****ЛОКАЛИЗАЦИЯ — ПРИОРИТЕТ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ**

**С каждым годом наша Республика Узбекистан успешно развивает и укрепляет многие направления промышленной и социальной сферы. Приоритетным направлением национальной экономики является промышленная кооперация и локализация.**

Как отметил глава нашего государства Шавкат Мирзиёев: «В нынешних меняющихся условиях наиболее эффективным способом обеспечения устойчивости экономики являются задействование внутренних возможностей, производство некоторой импортируемой продукции у нас в стране и дальнейшее развитие промышленности. Это должно стать приоритетом нашей национальной экономики».

Следует напомнить, что локализация даёт ряд преимуществ, среди которых - возможность контролировать процесс выпуска комплектующих, сокращение времени, необходимого для поставки материалов и исключение риска перебоев в поставке деталей, поддержка и развитие отечественных предприятий, и, что немаловажно, снижение себестоимости выпускаемой продукции.

В связи с этим, с начала нынешнего учебного года в Навоийском государственном горном и технологическом университете начала свою деятельность новая кафедра локализации промышленных производств.

- Основная цель кафедры — подготовка высококвалифицированных специалистов по направлениям материаловедения (наука о материалах и их использовании), мехатроника (изучение и создание на практике машин, которые управляют искусственным интеллектом) и робототехника (разработка и конструирование роботов, роботизированных систем, способных автоматизировать любые процессы), повышение их теоретических и практических знаний по снижению импортозависимости, - рассказал заведующий кафедрой локализации, профессор Ильхом Эгамбердиев. — Надо отметить, что это актуальные направления в области локализации. И чтобы приобрести знания и навыки международного уровня на кафедре создали, так сказать,

отборную группу студентов. В частности, из нескольких групп по направлениям «Инженерная механика», «Горное дело», «Горная электромеханика», «Электротехника», «Металлургия», «Автоматизированное управление производством» и «Химическая технология» отобраны наиболее талантливые студенты третьих курсов, которые отлично учатся, имеют сертификат о знании иностранного языка и компьютерных программ. В отборную группу вошли 21 человек. Для них образовательный процесс на кафедре локализации ведётся на английском языке. Основные предметы - реинжиниринг, аддитивные технологии и инноватика. Реинжиниринг - это фундаментальное переосмысление и радикальное перепроектирование бизнес-процессов для достижения существенных улучшений в ключевых для современного бизнеса показателях результативности, аддитивные технологии — это процесс изготовления деталей, который основан на создании физического объекта по электронной модели, инноватика — это наука управления процессами преобразования научных достижений в инновации. Программа обучения разработана на основе учебных программ ведущих университетов мира и направлена на вывод узбекистанских студентов на международную технологическую арену. Преподавательский состав кафедры локализации достаточно компетентный — из 7 человек трое имеют учёную степень профессора, остальные являются кандидатами и докторами наук со знанием английского языка. В будущем планируется создать подобную группу по изучению проблем водообеспечения...

Большим подспорьем для использования теоретических знаний на практике служат университетские лаборатории, оборудованные уникальными микро-скопами, мультфильми и плавильными

печами, отрезными станками и т.д. В настоящее время заключён договор-соглашение с Джиззакской компанией по изготовлению боковых стёкол для автомобилей в рамках локализации, и работники кафедры совместно со студентами Навоийского университета уже приступили к изучению этого вопроса.

В ближайшее время на основе договоров о сотрудничестве, заключённых между университетами и промышленными предприятиями, планируется провести масштабную работу по локализации деталей и механизмов, импортируемых



в Навоийский горно-металлургический комбинат. В связи с этим, основную кафедру локализации расположили на территории Навоийского машиностроительного завода (НМЗ), что даёт возможность студентам участвовать в реальных промышленных проектах.

- Создание кафедры локализации на территории НМЗ было целесообразно, поскольку у нас есть большой опыт по изготовлению импортозамещающих деталей и механизмов для горного производства, есть возможность сразу на деле показывать процессы их изготовления студентам, - рассказал начальник Центральной заводской лаборатории НМЗ



Рустам Хамдамов. — На кафедре оборудованы учебный класс и лаборатория, оснащённая большинством необходимого современного оборудования. Это 3D-принтер, уникальный рентгеновский прибор, микроскоп «ПОЛАМ РП-1» для исследования объектов в проходящем, отражённом, обыкновенном и поляризованном свете, который широко применяется в различных областях науки и техники; микровёрдомер «ПМТ-3М», предназначенный для измерения микротвёрдости материалов, сплавов, стекла, керамики и минералов, в сочетании с фотозлектрическим окулярным микрометром позволяет в два раза повысить

точность определения микротвёрдости, а производительность процесса измерения - в 10-15 раз; сканер «HandySCAN 700» обеспечивает революционную точность, разрешение и значительно более высокую скорость измерений; анализатор «G4 ICARUS HF» определяет содержание углерода и серы в твёрдых материалах и порошках; иономер «SevenCompact S220», предназначенный для измерения концентрации ионов в водных растворах; аналитические весы «Mettler Toledo AG204» для взвешивания образцов с максимальной массой 220 г и разрешающей способностью 0,1 мг, соответствуют I (специальному) классу точности. Оснащение лаборатории в дальнейшем будет продолжаться.

